

# **МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ**



***Илимий-методикалық журнал***

---

**2024**

**5/1-сан**

*Ўзбекистон Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

**5/1-сан 2024**

*май*

*Шөлкемлестіріушілер:*

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириу Министрлиги,  
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

**Редактор:  
А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ  
Нағмет АЙЫМБЕТОВ  
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ  
Сапардурды АБАЕВ  
Адхамжон АБДУРАШИТОВ  
ХАЙРУЛЛА АЛЯМИНОВ  
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ  
Алишер АЛЛАМУРАТОВ  
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ  
Интизар АБДИРИМОВА  
Тўлкин АЛЛАЁРОВ  
Марифжон АХМЕДОВ  
Умида БАҲАДИРОВА  
Фархад БАБАШЕВ  
Ботир БОЙМЕТОВ  
Гулзода БОЙМУРОДОВА  
Шахло БОТИРОВА  
Маманазар ДЖУМАЕВ  
Асқар ДЖУМАШЕВ  
Алишер ЖУМАНОВ  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Холбой ИБРАГИМОВ  
Шохида ИСТАМОВА  
Умида ИБРАГИМОВА  
Лола ИСРОИЛОВА  
Меруерт ПАЗЫЛОВА  
Асқарбай НИЯЗОВ  
Сабит НУРЖАНОВ  
Захия НАРИМБЕТОВА  
Хушбоқ НОРБЎТАЕВ  
Улфат МАҲҚАМОВ  
Уролбой МИРСАНОВ

Сафо МАТЧОН  
Шукурилло МАРДОНОВ  
Камаладин МАТЯКУБОВ  
Раъно ОРИПОВА  
Бахтиёр РАХИМОВ  
Фуркат РАЖАБОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Барлықбай ПРЕНОВ  
Дилшода САПАРБАЕВА  
Феруза САПАЕВА  
Зайниддин САНАҚУЛОВ  
Қаххор ТУРСУНОВ  
Амина ТЕМИРБЕКОВА  
Нурзода ТОШЕВА  
Қуанишбек ТУРЕКЕЕВ  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ  
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ  
Амангелди КАМАЛОВ  
Воҳид КАРАЕВ  
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА  
Ризамат ШОДИЕВ  
Зафар ЧОРШАНБИЕВ  
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ  
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Тармиза ХУРВАЛИЕВА  
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ  
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ  
Гулрухсор ЭРҒАШЕВА  
Гавхар ЭШЧАНОВА  
Қонысбай ЮСУПОВ



|                                                                                                                                             |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Абдурахмонова Х.Г.</b> Бошқарув маданиятининг тушунчаси, моҳияти ва асосий жиҳатлари .....                                               | 187 |
| <b>Абдулломова М.А.</b> Педагогик фаолиятда мулоқот этикасининг ўзаро фалсафий муносабатлари ва хусусиятлари .....                          | 193 |
| <b>Gadayev D.R.</b> Tayanch kompetensiyalarning pedagogik jarayondagi roli .....                                                            | 198 |
| <b>Muhamediyeva N.Q.</b> Milliy hunarmandchilikni rivojlantirish mexanizmlari .....                                                         | 206 |
| <b>Mamajonova K.A.</b> Ta'lim tizimi va ishlab chiqarish korxonalari integratsiyasida maqsadli kasbga tayyorlash imkoniyatlari .....        | 212 |
| <b>Ro'ziyeva N.A.</b> Talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda jadid ma'rifatparvarlarining ijtimoiy-axloqiy qarashlari .....          | 219 |
| <b>Saliyeva N.S.</b> Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning ta'lim tizimidagi roli .....                                            | 227 |
| <b>Raimov S.S.</b> Zahiradagi ofitserlarning xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish pedagogik jarayon sifatida .....                        | 236 |
| <b>Karimova N.X.</b> Pedagogik muloqot tushunchasi adabiyotlarda o'rganilishi .....                                                         | 242 |
| <b>Safarov F.S.</b> Innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayonlarida qo'llash va loyihalashni takomillashtirish .....                       | 248 |
| <b>Egamberdiyeva N. A.</b> Inklyuziv ta'lim muhitida autizm sindromli bolalar bilan ishlashning klaster mexanizmlari .....                  | 255 |
| <b>Пўлатов Ш.П.</b> Умумий ўрта таълими муассасасини инновацион бошқаришда кластерли ёндашув стратегияси ва модели .....                    | 258 |
| <b>Muxamedjanova S., Ostonova N.</b> Loyiha texnologiyalarining madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi roli .....   | 267 |
| <b>Ғаффарова М.Қ.</b> Коммуникатив тўсиқларнинг психолингвистик аспекти .....                                                               | 273 |
| <b>Каримова Ф.Н.</b> Формирование когнитивной компетенции у студентов .....                                                                 | 278 |
| <b>Rukhiddinov Kh.</b> Theoretical foundations of improving the listening comprehension of blind students through interactive methods ..... | 284 |
| <b>Ravshanova G.</b> Technology for development of creative competence of future teachers .....                                             | 295 |

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИК ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

|                                                                                                                                                                                         |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Sharipova O.A.</b> Abdurauf Fitrat ilmiy merosida oila va xotin-qizlar masalasi .....                                                                                                | 300 |
| <b>Atadjanova D.U.</b> Imom Moturidiy va Abul Muin Nasafiylarning asarlarida xulqiy go'zallikni qaror toptirishning tarbiyaviy usul va vositalari .....                                 | 305 |
| <b>Qahharova M.L.</b> Uchinchi Renessans sharoitida talabalarni kasbga qiziqitirishda hadislardan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati .....                                            | 310 |
| <b>Karimova N.R., Ibroximjonovna Sh.B.</b> Amir Temur ahloqiy qarashlarining tarbiyaviy ahamiyati .....                                                                                 | 315 |
| <b>Turemuratova A.B., Erjanova V.Q., Kubeyisnova N.M.</b> Talabalarining milliy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashini oshirishning tarbiyaviy ahamiyati va pedagogik tahlillari ..... | 321 |
| <b>Mamadaliyev M.</b> Mutafakkirlar ilmiy merosida olamni anglash va yoshlar ma'naviyatini shakllantirish masalalari .....                                                              | 326 |
| <b>G'aniev D.G'.</b> Bo'lajak mutaxassislarda oilaviy qadriyatlarni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurat sifatida .....                                                        | 332 |
| <b>Каримова Н.Я.</b> Воспитание молодежи на основе национальных и религиозных ценностей как социальная необходимость .....                                                              | 338 |

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

|                                                                                                                                                             |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Kamolov E.R.</b> Noaniq to'plam prinsipidan foydalanib noaniq regulyatorlarni qurish .....                                                               | 344 |
| <b>Islomov S.M., Dolliyeva D.A.</b> To'g'ri burchakli uchburchakda medianalar va bissektrisalar kesishgan nuqtalar orasidagi masofani topish usullari ..... | 348 |
| <b>Axmedova M.T.</b> Elektron ta'lim muhitida talabalarni libos dizayni bo'yicha yetuk mutaxassis qilib tayyorlash .....                                    | 352 |



## INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA AUTIZM SINDROMLI BOLALAR BILAN ISHLASHNING KLASTER MEXANIZMLARI

*Egamberdiyeva N. A.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi*

**Tayanch so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, autizm, tamoyil, metod, ruhiy rivojlanish, sindrom, alohida ehtiyojli bola.

**Ключевые слова:** Инклюзивное образование, аутизм, принцип, метод, психическое развитие, синдром, ребенок с особыми потребностями.

**Key words:** Inclusive education, autism, principle, method, mental development, syndrome, child with special needs.

Kirish. Bugungi kunda butun dunyoda inklyuziv ta'lim tizimi dolzarb sohalarida biriga aylanmoqda. Dunyo bo'yicha nogironligi bo'lgan shaxslarni o'qitish, ta'lim- tarbiyasi bilan shug'ullanish ishlari keng ko'lamda olib borilmoqda. Shu o'rinda bir savol tug'iladi - inklyuziv ta'lim o'zi nima?

Inklyuziv ta'lim - barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarining farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir.

Inklyuzivlik - inglizcha so'z bo'lib, inclusive - qo'shish, birlashtirish degan ma'nolarni anglatadi. Mazkur atama alohida ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni umumta'lim maktablarida sog'lom tengdoshlari bilan qo'shib birgalikda o'qitish jarayonini ifodalaydi. Inklyuziv ta'lim- o'quvchilarning imkoniyatlari, individual-psixologik, jismoniy nuqson va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etiladigan ta'lim jarayonidir. Shuningdek inklyuziv ta'lim davlat siyosati bo'lib, imkoniyatlari cheklangan va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, inklyuziv ta'limga muhtoj bolalarni rivojlanishidagi nuqsonlari yoki iqtisodiy qiyinchiliklaridan qat'i nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Inklyuziv ta'limning maqsadi - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 13-oktyabrda "Alohida ta'limga ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi. Mazkur qaror bilan 2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Ushbu konsepsiyaga muvofiq bugungi kunda Respublikamizda alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga va ta'limning boshqa turlariga jalb qilish ishlari boshlab yuborilgan.

Lekin mamlakatimizda ushbu sindrom bilan kasallanganlar soni hanuzgacha to'laligicha aniqlanmaganligi uchun bu masala dolzarb bo'lib saqlanib qolmoqda.

Autizm (grekcha "autos"- "o'zim" degan) so'zdan kelib chiqqan - bu ruhiyatning o'ziga xos holati bo'lib, bemor tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqot qilishni istamaydi. U yolg'izlikni yoqtiradi. Yana bir xil xatti- harakat va shunday so'zlarni takrorlaydi. Autizm tashxisli bola o'z olamida yashaydi. Fikrlashi boshqalarnikiga o'xshamaydi. Ularning xatti- harakatlari real voqelik bilan bog'liq emas. Ushbu rivojlanishda kamchilikka ega bo'lgan bolalarning harakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o'rin tutadi. Ushbu sindrom o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'p uchraydi. Autizm atamasi fanga dastlab, bundan 40 yil oldin kirib kelgan. Ushbu atama birinchi bor shvetsariyalik psixiatr Eygen Bleyger tomonidan 1912-yilda shizofreniya kasalligining belgilaridan biri sifatida ishlatilgan. 1943- yilda esa ingliz psixiatri Leo Kenner davolash amaliyotida 11 bolaning xulq-atvori, yurish-turishidagi o'xshash belgilarni kuzatib, "erta bolalik autizmi" atamasini fanga kiritgan. U kuzatgan barcha bolalardagi belgilar hozirgi kunda ham autizm belgilari sifatida o'rganilmoqda.

Faqatgina 1981-yildan boshlab "bolalar autizmi" mustaqil nuqson sifatida qabul etildi. Hozirgi kunda bolalar autizmi bosh miyaning rivojlanishidagi kamchiliklardan kelib chiqadigan mustaqil nuqson sifatida o'rganilmoqda. Mutaxasislarning so'zlariga ko'ra, sindromning ilk belgilari 2-3 yoshda namoyon bo'la boshlaydi. Ushbu sindrom hozirgi kunda ham olimlar tomonidan o'rganilmoqda. Autist bola atrofga o'zgacha nazar bilan qaraydi. Ma'lumotlarga ko'ra hozirda dunyoda har 88 ta bolaning birida autizm kuzatilishi mumkin. Bunday bolalar tashqi ko'rinishidan boshqalardan farq qilmaydi, faqat u o'zgacha fikrlaydi. Simptomlarning har xilligi va o'zgaruvchanligi ushbu sindromning murakkabligidan dalolat beradi.

Autizm sindromining kelib chiqish sabablari: olimlarning fikricha, sindromning kelib chiqish sabablaridan biri bu - homilani ona qornidalik davrida ma'lum bir turdagi oqsillarning yetishmovchiligi,. Ikkinchi sababi, organizmda ikki xil og'ir metalning, qo'rg'oshin va simobning ko'payib ketishi. Uchinchi sabab atrof muhitni ekologik buzilishi va homiladorlik paytida kuchli stress holatlarni kechirish. Anemiya hamda qon bosimining oshishi - bularning hammasi autizmi kelib chiqish sabablari hisoblanadi.



Autizm sindromi yoshga qarab quyidagilarga bo'linadi:

Erta bolalik autizmi- 2 yoshgacha;

Bolalik autizmi -2-11 yoshgacha;

O'smirlik autizmi 11-18 yoshlargacha.

Shu vaqtgacha autizm sindromini genetik kasallik deb hisoblashgan. Lekin so'nggi ma'lumotlarga ko'ra, ushbu sindrom atrof-muhitdagi zararli-kimyoviy moddalarning ko'payishidan kelib chiqmoqda. Ko'pchilik chet ellik mutaxassislar va ayniqsa G'arbda autizmga chalingan bolalarni qanday bo'lsa, shunday qabul qilish kerak degan fikrni olg'a suradilar.

Autizm xastalik emas, uni sindrom yoki o'ziga xos ruhiy holat deb yuritish to'g'riroq bo'lardi deb hisoblaydi shifokor-psixonevrolog Nozim Sanaqulov. Bugungi kunda mamlakatimizda ushbu sindromga chalingan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish ishlari qizg'in olib borilmoqda. Xususan autist bolalarga inklyuziv ta'lim tizimida dars o'tilishi, bunday xususiyatga ega bo'lgan bolalarning sog'lom tengdoshlari bilan birga bir xonada dars o'tishlari uchun qulay sharoitlar yaratib berilishi zarur. Autist bola sog'lom tengdoshlariga yetib olishi uchun uni har tomondan qo'llab quvvatlash muhim omil hisoblanadi. Ota-ona, sinf rahbar, maxsus pedagog, psixolog, logoped, tibbiyot xodimi, MFY, qo'ni-qo'shnilar, oilaviy poliklinika va boshqalar bunday turdagi bolalar bilan ish olib borishadi. Ota-ona farzandini hamisha qo'llab-quvvatlashi, unga dalda berishi, uni jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun va yana maktabdagi olayotgan bilimlarini mustahkamlashga yordam berishi zarur. Oiladagi muhitning sog'lom bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Sinf rahbar ham o'z o'quvchilari ichidagi alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarga ko'proq e'tibor qaratishi kerak.

Ularning ta'lim olish jarayonini osonlashtirish hamda ularning bilim salohiyatini inobatga olgan holda ularga ta'lim berish jarayonini ishlab chiqish talab qilinadi.

Psixologning bunday bolalar bilan ishlash jarayonida o'rni juda muhim. Chunki ularning ruhiyati boshqa bolalarnikidantubdan farq qilishini inobatga olgan holda ular bilan ishlashning, turli metodlarini ishlab chiquvchi shaxs psixolog hisoblanadi.

Ularning ruhiyati, harakteri, dunyoga qanday ko'z bilan qarashini o'rganadigan shaxs psixologdir. Logoped autistik bola bilan nutqni rivojlantirish bo'yicha ko'plab ishlarni amalga oshiradi. Logopedning asosiy vazifasi ushbu sindromga chalingan bolalarni nutqini rivojlantirish va ular bilan korreksion pedagogik ishlarni amalga oshirishdir.

Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim tizimining joriy etilishi va unga autistik bolalarning qamrab olinishi bu, davlatimizning har bir bolaga bo'lgan e'tiboridan darak beradi. Biz o'ylaymizki, inklyuziv ta'lim muhitida autizm sindromli bolalar bilan ishlash juda ham murakkab jarayon.



Chunki bir sinfda sogʻlom bolalar orasida aqliy rivojlanishda ortda qolgan bolalarning taʼlim olishi, ularning oʻz tengdoshlari bilan muomala qilishi va darslarni oʻzlashtirishi uchun ularga juda jiddiy eʼtibor va yordam zarur. Ayniqsa bunday muhitda dars beruvchi kadrlarning yetishmasligi ham bu tizimning rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatadi. Chunki maxsus ehtiyojli bolalarni umumtaʼlim tizimida oʻqitish oʻqituvchilardan ikki karra masʼuliyat bilan ishlashni talab etadi. Shuning uchun ham oliy pedagogik maʼlumotli va malaka oshirish kurslarini oʻtab inklyuziv taʼlim pedagogik kvalifikatsiyasini olgan oʻqituvchilargina inklyuziv sinf oʻqituvchisi etib tayinlanishi mumkin. Maxsus kurslarni tugatmagan oʻqituvchilar inklyuziv sinf oʻqituvchisi boʻla olmaydi. Inklyuziv taʼlim tizimning ijobiy tomoni shundaki bu taʼlim jarayonida hech bir bola eʼtibordan chetda qolmaydi.

Har bir bolaga uning kelib chiqishi va holatidan qatʼi nazar taʼlim tarbiya berish ishlari olib boriladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Moʻminova L.R. “Autizm sindromi, uning sabablari, turlari va bartaraf etish metodikalari”. Uslubiy qoʻllanma. Toshkent “Spectrum Media Group” 2015-yil.
2. Egamberdiyeva, N. A. (2023). Taʼlim klasteri sharoiti–autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning innovatsion omili sifatida. Konferensiya, 1(1), 154-158.
3. Egamberdiyeva, N. A. Raqamli taʼlim muhitida autizm sindromli bolalarni rivojlantirish. raqamli taʼlimning zamonaviy tendentsiyalari va ularni taʼlim-tarbiya jarayoniga tadbqiq qilish yoʻllari” mavzusidagi Respublika ilmiyamaliy konferensiyasi.
4. Qodirova, F. U., & Egamberdiyeva, N. A. (2023). Taʼlim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalarni tashxislash va korreksiyalash ishlarining mazmuni. Konferensiya, 1(1), 201-205.
5. Egamberdiyeva, N. A., & Raxmatullayeva, M. R. (2022). Inklyuziv taʼlimda eshitishida muammosi boʻlgan bolalarning psixologik xususiyatlari. Inklyuziv taʼlimning dolzarb masalalari, 1(1), 163-167

#### **РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqolada inklyuziv taʼlim muhitida autizm sindromli bolalar bilan ishlashning mazmuni, tamoyillari, metodlari va shart-sharoitlari haqida batafsil yoritilgan

#### **РЕЗЮМЕ**

В данной статье подробно рассмотрены содержание, принципы, методы и предпосылки работы с детьми с синдромом аутизма в среде инклюзивного образования.

#### **SUMMARY**

This article discusses in detail the content, principles, methods and prerequisites of working with children with autism syndrome in an inclusive education environment.